

**YOSHLAR O‘RTASIDA DERADIKALIZATSIYA JARAYONLARINI
KUCHAYTIRISHDA TA’LIM VA TARBIYANING AHAMIYATI**

Axmedova Iroda Shaxitbekovna,

Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

E-mail. irodashaxitbekovna85@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar o‘rtasida radikal g‘oyalar tarqalishining oldini olish va deradikalizatsiya jarayonlarini kuchaytirishda ta’lim hamda tarbiya tizimining o‘rni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, yoshlar ongida sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish, mafkuraviy immunitetni mustahkamlash hamda bag‘rikenglik muhitini rivojlantirishning dolzarb masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: deradikalizatsiya, yoshlar, ta’lim, tarbiya, mafkuraviy immunitet, bag‘rikenglik, radikalizm, ijtimoiy barqarorlik, ma’naviyat, axborot xavfsizligi.

Аннотация. В данной статье анализируется роль системы образования и воспитания в предотвращении распространения радикальных идей среди молодежи и укреплении процессов дерадикализации с социально-философской точки зрения. Также освещаются актуальные вопросы формирования здорового мировоззрения у молодежи, укрепления идеологического иммунитета и развития толерантной среды.

Ключевые слова: дерадикализация, молодежь, образование, воспитание, идеологический иммунитет, толерантность, радикализм, социальная стабильность, духовность, информационная безопасность.

Abstract. This article analyzes the role of the education and upbringing system in preventing the spread of radical ideas among young people and strengthening the processes of deradicalization from a socio-philosophical perspective. It also highlights the urgent issues of forming a healthy worldview in the minds of young people, strengthening ideological immunity, and developing an environment of tolerance.

Keywords: deradicalization, youth, education, upbringing, ideological immunity, tolerance, radicalism, social stability, spirituality, information security.

Kirish. “Deradikalizatsiya tushunchasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda shakllanib kelayotgan muhim kategoriyalardan biridir. Shaxs yoki ijtimoiy guruhlarning radikal, mutaassib va destruktiv g‘oyalardan voz kechib, ijtimoiy maqbul, konstruktiv va insonparvar qadriyatlarga qaytish jarayonini anglatadi”[1]. Mazkur tushuncha o‘z mohiyatiga ko‘ra faqat siyosiy yoki huquqiy choralar bilan cheklanib qolmay, balki inson ongida, dunyoqarashida va qadriyatlar tizimida yuz beradigan chuqur transformatsiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan, deradikalizatsiya ijtimoiy-falsafiy tahlilni talab etuvchi kompleks jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, “radikalizm odatda jamiyatdagi muayyan ijtimoiy, iqtisodiy yoki ma’naviy muammolarga nisbatan keskin, murosasiz va ko‘pincha zo‘ravonlikka moyil bo‘lgan yondashuv sifatida talqin etiladi. Bunday qarashlar aksariyat hollarda ijtimoiy adolatsizlik hissi, identitet inqirozi, ma’naviy bo‘shliq yoki noto‘g‘ri mafkuraviy ta’sirlar natijasida shakllanadi”[2]. Ayniqsa,

globalashuv sharoitida axborot oqimining keskin ortishi va nazoratsiz virtual makonning kengayishi radikal g'oyalarning tez tarqalishiga zamin yaratmoqda. Shu bois, deradikalizatsiya jarayoni nafaqat mavjud muammolarga javob, balki jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida qaraladi.

Deradikalizatsiyaning falsafiy mohiyati, eng avvalo, “inson ongining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Bu jarayon shaxsning avvalgi qat'iy va murosasiz qarashlaridan voz kechib, ko'proq ochiq, bag'rikeng va tanqidiy tafakkurga asoslangan pozitsiyani egallashini anglatadi”[3]. Bu yerda muhim jihat shundaki, deradikalizatsiya majburlash orqali emas, balki ongli ravishda, ichki anglash va tushunish natijasida amalga oshirilishi lozim. Chunki tashqi bosim ostida yuzaga kelgan o'zgarishlar barqaror bo'lmaydi va vaqt o'tishi bilan yana eski qarashlarga qaytish ehtimoli yuqori bo'ladi. Mazkur jarayonning yana bir muhim jihati – qadriyatlar transformatsiyasidir. Radikal qarashlarga ega bo'lgan shaxs odatda dunyoni “oq-qora” shaklida, ya'ni mutlaq to'g'ri va mutlaq noto'g'ri kategoriyalar orqali idrok etadi. Deradikalizatsiya esa ushbu dualistik fikrlashni bartaraf etib, murakkab ijtimoiy haqiqatni ko'p qirrali va nisbiylik asosida tushunishga yo'naltiradi. Natijada shaxsda bag'rikenglik, murosa, muloqotga ochiqlik kabi fazilatlar shakllanadi. Bu esa ijtimoiy hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy jihatdan qaralganda, deradikalizatsiya faqat individual darajada emas, balki guruh va jamiyat miqyosida ham amalga oshiriladi. Bu jarayonda ijtimoiy institutlar – ta'lim tizimi, oila, ommaviy axborot vositalari, diniy tashkilotlar va fuqarolik jamiyati muhim rol o'ynaydi. Ular orqali jamiyatda sog'lom ma'naviy muhit yaratiladi, ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillari mustahkamlanadi hamda radikal g'oyalarning ildiz otishiga qarshi profilaktik choralar ko'riladi. Deradikalizatsiya jarayonining yana bir muhim komponenti – identitet masalasidir. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, radikalizm ko'pincha shaxsning o'z o'rnini topa olmasligi, ijtimoiy va madaniy identitet inqirozi bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli deradikalizatsiya jarayonida shaxsga ijobiy identitetni shakllantirish, uning jamiyatdagi o'rnini anglashga yordam berish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida shaxsning ijtimoiy faolligini oshiradi va uni konstruktiv faoliyatga yo'naltiradi.

Muhokama va natijalar. Falsafiy jihatdan “deradikalizatsiya inson erkinligi va mas'uliyati bilan ham bevosita bog'liqdir. Inson o'z qarashlarini tanlashda erkin bo'lsa-da, ularning ijtimoiy oqibatlari uchun mas'uldir”. Shu nuqtai nazardan, deradikalizatsiya shaxsni nafaqat erkin fikrlashga, balki o'z fikrlarining jamiyatga ta'sirini anglashga ham o'rgatadi. Bu esa ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Deradikalizatsiya tushunchasi murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy-falsafiy jarayon bo'lib, u inson ongining transformatsiyasi, qadriyatlar tizimining yangilanishi va jamiyatda

sogʻlom muhitning shakllanishi bilan uzviy bogʻliqdir. Ushbu jarayonni samarali amalga oshirish uchun kompleks yondashuv, yaʼni taʼlim, tarbiya, ijtimoiy siyosat va madaniy rivojlanish omillarining uygʻunligi zarur. Faqat shundagina jamiyatda barqarorlik, tinchlik va taraqqiyotga erishish mumkin boʻladi.

Deradikalizatsiya jarayonida tarbiyaning maʼnaviy-axloqiy ahamiyati nihoyatda muhim boʻlib, u shaxs ongida sogʻlom dunyoqarashni shakllantirish, radikal gʻoyalarga nisbatan ichki qarshilik – mafkuraviy immunitetni yuzaga keltirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tarbiya – bu insonning faqat bilim olish jarayoni emas, balki uning ruhiy, axloqiy va ijtimoiy kamolotini taʼminlovchi uzluksiz jarayondir. Aynan shu jihati bilan u deradikalizatsiyaning markaziy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon boʻladi. Maʼnaviy-axloqiy tarbiya, avvalo, shaxsda ezgulik, adolat, bagʻrikenglik, hurmat va masʼuliyat kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Radikal qarashlar esa, aksincha, koʻpincha murosasizlik, boshqacha fikrga toqatsizlik va keskinlik bilan tavsiflanadi. “Tarbiya orqali yoshlarning ongiga insonparvarlik va ijtimoiy hamjihatlik gʻoyalari singdirilsa, bu ularning radikal mafkuralarga moyilligini sezilarli darajada kamaytiradi”[4]. Demak, tarbiya shaxsning ichki dunyosini mustahkamlab, uni zararli gʻoyalardan himoya qiluvchi ruhiy tayanch vazifasini bajaradi.

Deradikalizatsiya jarayonida tarbiyaning muhim jihatlaridan yana biri – qadriyatlar tizimini shakllantirishdir. “Har bir jamiyat oʻzining tarixiy, madaniy va milliy qadriyatlariga ega boʻlib, ular shaxsning hayotiy yoʻnalishini belgilaydi. Agar yoshlar ongida ushbu qadriyatlar mustahkam oʻrnashsa, ular turli yot va destruktiv gʻoyalarga nisbatan barqaror boʻladi”[5]. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uygʻunligi asosida olib borilgan tarbiya deradikalizatsiyaning muhim vositasiga aylanadi. Bu jarayonda, ayniqsa, vatanparvarlik, inson huquqlariga hurmat va tinchlikparvarlik gʻoyalarining singdirilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Tarbiyaning yana bir muhim funksiyasi – shaxsda tanqidiy tafakkur va ongli qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishdir. Radikal guruhlar koʻpincha yoshlarning hissiyotlariga taʼsir qilish, ularni manipulyatsiya qilish orqali oʻz taʼsir doirasiga tortadi. Agar shaxs tarbiya jarayonida mustaqil fikrlash, turli axborotlarni tahlil qilish va baholash koʻnikmalariga ega boʻlsa, u bunday taʼsirlarga berilmaydi. Bu esa deradikalizatsiyaning profilaktik jihatini kuchaytiradi.

Ijtimoiy muhit ham tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Oila, mahalla, taʼlim muassasalari va keng jamoatchilik yoshlarning maʼnaviy-axloqiy shakllanishida bevosita ishtirok etadi. “Oila, xususan, shaxsning dastlabki qadriyatlari shakllanadigan muhit boʻlib, unda berilgan tarbiya butun hayot davomida muhim rol oʻynaydi. Mehr-oqibat, hurmat va oʻzaro tushunish muhitida ulgʻaygan yoshlar radikal gʻoyalarga nisbatan kamroq moyil boʻladi”[9]. Mahalla va jamoatchilik esa yoshlarni

ijtimoiy hayotga jalb etish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish orqali salbiy ta’sirlarning oldini oladi.

Deradikalizatsiya jarayonida tarbiyaning yana bir muhim jihati – shaxsning identitetini mustahkamlashdir. O‘zligini anglash, jamiyatdagi o‘rnini his etish va ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etilish yoshlarni turli ekstremistik guruhlar ta’siridan himoya qiladi. “Radikalizm ko‘pincha o‘z o‘rnini topa olmagan, ma’naviy bo‘shliqni boshdan kechirayotgan shaxslarda shakllanadi”[6]. Tarbiya esa ana shu bo‘shliqni to‘ldirib, shaxsni ijobiy yo‘nalishga yo‘naltiradi. Tarbiya jarayonida diniy savodxonlikni oshirish ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, noto‘g‘ri talqin qilingan diniy g‘oyalar ko‘pincha radikalizmning manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli diniy bilimlarni to‘g‘ri va asosli tarzda yetkazish, diniy bag‘rikenglikni shakllantirish yoshlarni ekstremistik ta’sirlardan himoya qilishda muhim vosita hisoblanadi.

Deradikalizatsiya jarayonida ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi muhim ijtimoiy-falsafiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki “radikal g‘oyalarga qarshi samarali kurashish faqatgina bilim berish yoki faqatgina axloqiy tarbiya bilan cheklanib qolmaydi; aksincha, ushbu ikki omilning o‘zaro uyg‘unlashuvi orqali shaxs ongida barqaror, mustahkam va ijobiy dunyoqarash shakllanadi”[7]. Shu bois ta’lim va tarbiya bir-birini to‘ldiruvchi, o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida deradikalizatsiyaning asosiy mexanizmlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Avvalo, ta’lim va tarbiya tushunchalarining o‘ziga xos jihatlarini aniqlab olish zarur. Ta’lim – bu shaxsga ilmiy bilimlar, ko‘nikma va malakalarni berish jarayoni bo‘lsa, tarbiya – uning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan faoliyatdir. Agar ta’lim insonning aqliy salohiyatini rivojlantirsa, tarbiya uning ruhiy va axloqiy dunyosini boyitadi. Deradikalizatsiya jarayonida aynan shu ikki yo‘nalishning uyg‘unlashuvi shaxsni har tomonlama yetuk, ongli va ijtimoiy mas’uliyatli inson sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Radikalizm ko‘pincha bir tomonlama fikrlash, murosasizlik va tanqidiy tafakkurning yetishmasligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim yoshlarning analitik fikrlashini rivojlantirish, turli axborotlarni tahlil qilish va ularni baholash qobiliyatini shakllantirish orqali radikal g‘oyalarning mohiyatini anglashga yordam beradi. Biroq faqat bilimning o‘zi yetarli emas. Agar bu bilimlar ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan mustahkamlanmasa, ular kerakli ijtimoiy natijani bermasligi mumkin. Shu bois tarbiya jarayoni ta’lim orqali olingan bilimlarni to‘g‘ri yo‘naltirish, ularni insonparvarlik, bag‘rikenglik va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillari bilan boyitish vazifasini bajaradi.

Ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi, avvalo, qadriyatlar tizimini shakllantirishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ta’lim orqali yoshlar tarix, madaniyat, huquq, falsafa kabi fanlar orqali jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadi. Tarbiya esa ushbu bilimlarni shaxsiy e’tiqod va hayotiy pozitsiyaga aylantiradi. Natijada shaxs nafaqat

nima to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini biladi, balki uni his qiladi va shu asosda qaror qabul qiladi. Bu esa radikal g‘oyalarga nisbatan barqaror immunitetni shakllantiradi. Deradikalizatsiya jarayonida ta‘lim va tarbiyaning uyg‘unligi, ayniqsa, yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. “Yoshlar jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun nafaqat bilimga, balki to‘g‘ri yo‘naltirilgan ma‘naviy qadriyatlarga ham ehtiyoj sezadi”[8]. Agar ushbu ikki omil bir-biridan ajralgan holda rivojlansa, shaxsda ichki ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, yuqori bilimga ega bo‘lgan, ammo ma‘naviy-axloqiy mezonlari yetarli darajada shakllanmagan shaxs turli destruktiv g‘oyalarga berilib ketishi ehtimoldan xoli emas. Shu sababli ta‘lim va tarbiya uyg‘unligi shaxsning ichki barqarorligini ta‘minlaydi.

Bundan tashqari, ta‘lim va tarbiyaning uyg‘unligi ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ta‘lim muassasalari faqat bilim beruvchi maskan bo‘lib qolmasdan, balki ma‘naviy tarbiya markazlariga aylanishi lozim. Bu yerda o‘qituvchilarning shaxsiy namunasi, pedagogik yondashuvlari, muloqot madaniyati katta ahamiyatga ega. Tarbiya elementlari ta‘lim jarayoniga singdirilgan holda, yoshlar ongiga chuqur ta‘sir ko‘rsatadi. Zamonaviy sharoitda raqamli makonning kengayishi ham ta‘lim va tarbiya uyg‘unligining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali turli radikal g‘oyalar tez tarqalmoqda. Bunday sharoitda ta‘lim yoshlarga axborotni tanlash va tahlil qilish ko‘nikmasini bersa, tarbiya ularga to‘g‘ri axloqiy mezonlar asosida qaror qabul qilishni o‘rgatadi. Bu esa yoshlarning virtual makondagi xavflardan himoyalinishiga xizmat qiladi.

Deradikalizatsiya jarayonida ta‘lim va tarbiyaning uyg‘unligi davlat siyosati darajasida ham qo‘llab-quvvatlanishi zarur. Ta‘lim dasturlariga ma‘naviy-axloqiy tarbiya elementlarini keng joriy etish, yoshlar bilan ishlashda kompleks yondashuvni qo‘llash muhimdir. Shu bilan birga, oila, mahalla va jamoatchilik institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi.

Deradikalizatsiya jarayonlarini kuchaytirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish zamonaviy jamiyatning dolzarb talablaridan biri hisoblanadi. Chunki bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida radikal g‘oyalar tarqalishining shakl va usullari tubdan o‘zgargan. Endilikda ular asosan internet, ijtimoiy tarmoqlar va turli raqamli platformalar orqali tezkor va keng miqyosda yoyilmoqda. Shu sababli deradikalizatsiya jarayonlari ham an‘anaviy usullar bilan cheklanib qolmasdan, innovatsion, zamonaviy va moslashuvchan yondashuvlarni talab etadi.

Xulosa. Avvalo, innovatsion yondashuvlar deganda, yangi pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar, interaktiv metodlar va kreativ kommunikatsiya usullaridan foydalanish tushuniladi. Bu yondashuvlar yoshlarning qiziqishlari,

ehtiyojlari va axborotni qabul qilish xususiyatlariga mos ravishda ishlab chiqiladi. Ayniqsa, yoshlar orasida keng ommalashgan ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va multimedia vositalari orqali olib boriladigan targ‘ibot ishlari yuqori samaradorlikka ega.

Birinchiidan, media savodxonlikni rivojlantirish innovatsion yondashuvlarning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Yoshlarni axborotni tanqidiy tahlil qilish, soxta xabarlarini aniqlash va manipulyativ kontentni ajrata olishga o‘rgatish radikal g‘oyalar ta‘sirini kamaytiradi. Shu maqsadda maxsus o‘quv dasturlari, treninglar va onlayn kurslar tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu orqali yoshlar nafaqat axborot iste‘molchisi, balki ongli va mas‘uliyatli foydalanuvchiga aylanadi.

Ikkinchiidan, interaktiv ta‘lim metodlarini joriy etish deradikalizatsiya jarayonlarini kuchaytiradi. An‘anaviy ma‘ruza shaklidagi ta‘limdan farqli ravishda, interaktiv metodlar – munozaralar, rolli o‘yinlar, keys-stadiyalar va simulyatsiyalar yoshlarni faol ishtirok etishga undaydi. Bu esa ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va turli qarashlarga nisbatan bag‘rikenglikni shakllantiradi.


Uchinchiidan, psixologik yondashuvlarning innovatsion shakllari ham muhim rol o‘ynaydi. Radikalizmga moyil yoshlar bilan individual ishlash, ularning ichki muammolarini aniqlash va psixologik qo‘llab-quvvatlash orqali ularni konstruktiv yo‘nalishga yo‘naltirish mumkin. Shu maqsadda psixologik treninglar, maslahat xizmatlari va reabilitatsiya dasturlaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, deradikalizatsiya jarayonlarini kuchaytirishda innovatsion yondashuvlar muhim strategik ahamiyatga ega. Ular yoshlarning zamonaviy axborot muhitiga mos ravishda fikrlashini shakllantiradi, radikal g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlaydi va jamiyatda barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu bois innovatsion usullarni keng joriy etish va doimiy ravishda takomillashtirib borish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ergashev O.H. Deradikalizatsiya. ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida. // Tamaddun nuri (ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma‘rifiy, adabiy-badiiy jurnal. №7 (70). 2025. – B.154.
2. Safarova N. Terrorizm. manbalar, maqsadi, globallashuv jarayoni. (Monografiya) T.. – Fan. 2006. –B.191
5. Онучко М.Ю. Религиозный экстремизм среди молодежи в Центральной Азии. особенности проблемы и пути решения // Центральная Азия и Кавказ. – 2019. – № 3. – С.123-137.
6. Koehler D. Understanding Deradicalization. Methods, Tools and Programs for Countering Violent Extremism. – NY.. Routledge, 2016. – P.322.
7. Kurbanov D.D. Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixining diniy fundamentalizm va ekstremizmga qarshi kurashdagi ahamiyati. Fals. f-i bo‘y. fal. d-ri (PhD) diss. ... avtoref. – Buxoro, 2023. – B.12
8. Mingboyev I.A. Yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirishda ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish usullari. // “Oriental Renaissance. Innovative, Educational, Natural and Social sciences”. VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 23. – B.831.

9. Ruziyeva R. Urf-odat va an’analar – milliy qadriyatlarni shakllantiradigan mezon sifatida // elektron jur. Scientific progress № 2. 2021. (644-648).
10. Кутузова Н.А. Религиозный радикализм и альтернативные социальные проекты // Религия и общество. Актуальные проблемы современного религиоведения. сб. науч. тр. - Могилев, 2008. – С.165.
11. Temirshoyeva Durdoni Bobomurod qizi, Abduraxmanova Nozima Akbar qizi, Oila muhitida milliy qadriyatlar asosida yoshlarni tarbiyalashning samarali usullari. // “O‘quvchi-yoshlarni tarbiyalashda milliy-hududiy an’analaridan foydalanish mexanizmlari. muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami (2025-yil 15-aprel) – T.. Science and Innovation, 2025.



**UNIVERSITY
OF BUSINESS
AND SCIENCE**